MILLIY IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING ASOSIY KO‘RSATKICHLARI

Nabiyev Asadbek Komil o‘g‘li
Qarshi davlat Texnika niversiteti talabasi
ORCID:(0009-0000-2471-0355
https://doi.org/ 10.5281/zenodo.21457064

Annotatsiya. *Mazkur maqola milliy iqtisodiyotni qay darajada rivojlanayotganini asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar va ularning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati orqali ko‘rib chiqadi. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilish, milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi muammolami aniqlash hamda uni yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqarish va bir qator iqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘rni hamda bu ko‘rsatkichlarning milliy iqtisodiyotni barcha subyektlari faoliyatiga umumiy baho berishi va qanday qilib milliy iqtisodiyotni jahon xo‘jaligiga raqobatbardoshligini tahlil qilish ushbu maqolada yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *milliy iqtisodiyot, milliy hisoblar tizimi (MHT), yalpi ichki mahsulot(YaIM), sof milliy mahsulot (SMM), milliy daromad(MD), export, import, real va nominal YaIM , makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yalpi qo‘shilgan qiymat.*

Kirish

Har bir davlat o‘z milliy iqtisodiyotini rivojlantirishni eng asosiy maqsadlardan biri deb hisoblaydi. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, aholi farovonligini oshirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishda turli makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar muhim rol o‘ynaydi. Mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini tahlil qilish, milliy iqtiso-diyot rivojlanishidagi muammolami aniqlash hamda uni yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqarish uchun bir qator iqtisodiy ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Alohida firmalar faoliyatiga baho berishda qo‘llaniladigan ko‘rsatkichlardan farqli tarzda bu ko‘rsatkichlar milliy iqtisodiyotning barcha subyektlari faoliyatiga umumiy baho berish, makroiqtisodiy tahlil o‘tkazish, mamlakat iqtisodiyotining jahon xo‘jaligida raqobatga bardoshliligi darajasini aniqlash imkonini beradi. Bu ko‘rsatkichlarga quyidagilar kiradi: yalpi ichki mahsulot (YalM), - Sof ichki mahsulot (SIM), yalpi milliy daromad (YaMD), Sof milliy daroimad (SMD), shaxsiy daromad (SHD), Shaxsiy tasarrufidagi daromad (SHTD), Iste’mol(C), Jamqarish (C) ko‘rsatkichlarining hajmi va o‘sish sur’atlari;

Milliy iqtisodiyotni rivojlanishini aniqlashda asosan milliy hisoblar tizimidan foydalaniladi. Milliy hisoblar tizimi (MHT) iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalarini o‘zaro bog‘liq statistik ko‘rsatkichlar orqali kompleks tavsiflashni ta’minlaydigan balans usulidir. U makroiqtisodiy faoliyat natijalarini aks ettiruvchi hisobvaraqlar va jadvallarning muayyan to‘plami ko‘rinishida ifodalangan o‘zaro bog‘liq statistik ko‘rsatkichlar hamda tasniflar tizimi sifatida ham aniqlanadi. MHT dastlab davlat boshqaruvi organlari tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida 1953-yildan boshlab rivojlangan mamlakatlarda qo‘llanila boshlagan. Bugungi kunda esa jahonning 150 dan ortiq mamlakatida ushbu tizimdan foydalanilmoqda. “Milliy hisobchilik” atamasi gollandiyalik iqtisodchi V. Kliff tomonidan taklif etilgan va muomalaga kiritilgan. Sobiq Ittifoqda makroiqtisodiyotni ifodalash va tahlil qilish uchun boshqa ko‘rsatkichlar tizimi — xalq xo‘jaligi balansi (XXB)dan foydalanilgan. Ushbu tizim ijtimoiy mulkchilik va markazlashtirilgan rejalashtirishga asoslangan

iqtisodiyot modelini tahlil qilishga mo‘ljallangan edi. Shu sababli bozor munosabatlariga o‘tish barcha postsovet hududida joylashgan mamlakatlar uchun xalq xo‘jaligi balansidan milliy hisoblar tizimiga o‘tishni zaruratga aylantirdi.Milliy hisoblar tizimi (MHT) ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy jarayonlar va ularning natijalari tavsiflanadi, shuningdek, ushbu jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliklar aks ettiriladi. Shu tariqa, MHT mamlakat, uning mintaqalari va sektorlarining iqtisodiy faoliyatini kompleks tahlil qilish uchun qo‘llaniladigan iqtisodiyotning o‘ziga xos modeli hisoblanadi.Jahon amaliyotida milliy hisoblar tizimining samarali bo‘lishi hamda makroiqtisodiy qonuniyatlar va o‘zaro bog‘liqliklarni aniqlash imkonini yaratishi uchun bir qator muhim qoidalarga rioya qilinadi. Birinchidan, MHTda iqtisodiy ishlab chiqarishning kengroq va to‘liqroq ta’rifi qo‘llaniladi (xalq xo‘jaligi balansida iqtisodiy ishlab chiqarish sohasiga faqat moddiy ishlab chiqarish kiritilgan). MHT metodologiyasiga ko‘ra iqtisodiy ishlab chiqarish tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish bo‘yicha barcha faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi. Milliy iqtisodiyot miqyosida alohida iqtisodiy subyektlar faoliyati natijalari milliy hisoblar tizimining turli ko‘rsatkichlari asosida baholanadi. Milliy hisoblar tizimi yordamida muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar aniqlanadi. MHTning eng asosiy ko‘rsatkichlari yalpi ichki mahsulot (YAIM), yalpi milliy mahsulot (YAMM), sof milliy mahsulot (SMM) va milliy daromad (MD) hisoblanadi.

Yalpi ichki mahsulot (YAIM)

YAIM MHTning eng asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, mamlakat iqtisodiy birliklari (rezidentlari)ning ma’lum davr ichida (ko‘pincha bir yil) amalga oshirgan ishlab chiqarish faoliyati natijalarini ifodalaydi. U pirovard iste’mol uchun mo‘ljallangan tovar va xizmatlarning bozor baholarida, ya’ni xaridor tomonidan to‘lanadigan narxlarda (tovarlarga solinadigan soliqlar va barcha savdo hamda transport ustamalarini ham o‘z ichiga olgan holda) hisoblanadi. Mustaqillik yillarida sanoat tarmog4i va xizmatlar sohasining rivojlanish salohiyati yanada kengaytirilishi natijasida YalM tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining bosqichma-bosqich kamayishi (1995-yilda 32,4 % dan 2019-yilda 25,5 % ga) tendensiyasi saqlanib qoldi. SHu biIan birga, YalM tarkibida qishloq xo‘jaligi ulushining kamayishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ijobiy o'rtacha yillik o‘sish sur’atlari lonida sodir bo‘ldi. Sanoat tarmog4ini diversifikatsiyalash, modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash bo‘yicha chora-tadbirlaming qabul qilinishi natijasida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmining o‘sishi va YalM tarkibida sanoatning (qurilishni qo‘shgan holda) ulushi 1995-yildagi 27,8 % dan 2019-yilda 33,2 % gacha oshishi ta’minlandi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti, bandlik va aholi daromadlari o4sishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xizmat ko4rsatish va servis sohasini isloh qilish bo‘yicha chora-tadbirlaming izchil amalga oshirilishi natijasida, mazkur tarmoq qisqa muddat ichida iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan sektoriga aylandi.

YAIM odatda mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va sur’atlarini ifodalovchi umumiy indikator vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, iqtisodiy tahlilda YAIM aholi soni, iqtisodiy faol va band aholi ko‘rsatkichlari bilan solishtiriladi. Bu esa aholi turmush darajasi va farovonligiga baho berish imkonini beradi. Shuningdek, iste’mol qilingan resurslar, asosiy fondlar, investitsiyalar va turli yo‘nalishlardagi davlat xarajatlari birligiga to‘g‘ri keladigan YAIM hajmi ham aniqlanadi. Bunday hisob-kitoblar resurslardan foydalanish samaradorligini, asosiy fondlar va sarflangan xarajatlar samaradorligini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YAIM hajmi asosida mamlakatning xalqaro tashkilotlarga to‘laydigan badallari miqdori aniqlanadi, shuningdek, xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladigan kreditlar shartlari ham belgilanishida muhim mezonlardan biri hisoblanadi.YAIM pul o‘lchovida aniqlanadi. Biroq bozor iqtisodiyoti sharoitida

pul birligi kursining tebranishi yuz beradi, shuningdek, tovar va xizmatlar narxlari o‘zgarib turadi. Natijada YAIMning jismoniy hajmi bir xil bo‘lgan holatda ham uning puldagi ifodasi turli qiymatga ega bo‘lishi mumkin. Shu sababli YAIM joriy (nominal) yoki haqiqiy (real) baholarda hisoblanadi. Bunda narxlar darajasi va pul birligi kursining o‘zgarishi ham hisobga olinadi. Shu munosabat bilan YAIM nominal va real turlarga ajratiladi.

Nominal YAIM amaldagi yoki joriy narxlarda hisoblanadi, real YAIM esa inflyatsiya va narxlar darajasidagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda aniqlanadi. Nominal va real YAIM o‘rtasidagi nisbat esa yalpi ichki mahsulot deflatori deb yuritiladi.

Makroiqtisodiy muhim ko‘rsatkichlardan biri -jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmi. Jahon bankining 2016-yildagi ma'lumotlariga ko‘ra quyidagi mamlakatlar eng yuqori o‘rinlami egallab turibdi: Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati bu ularning YaIM hajmi orqali aniqlanadi.

1. Qatar-127 522 doll.,
2.Lyuksemburg - 105 881 doll.,
3. Makao - 104 168 doll.,
4. Singapur - 87 855 doll.,
5. Bruney - 77 440 doll.,
6.BAA - 72 418 doll.,
7.Irlandiya - 68 882 doll.,
8.Shveysariya-62 881 doll.,
9.Norvegiya - 59 301 doll.,
I O. Honkong - 58 552 doll.

O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

	O'lchovbirligi	2000 yil	2010yil	1990 yilga nisbatan foizhisobida	
				2000yil	2010yil
Yalpi ichki mahsulot (xarid qobiliyati pariteti bo'yicha)	million dollar	35277	92326	1,3marta	3.4marta
Sanoatning YalMdagi ulushi	foiz	14,2	24,0	x	x
Qishloq xo'jalik mahsulotlari	milliard so'm	1387	15811	100,6	182,9
Qishloq xo'jaligining	foiz	30,1	17,5	x	x
Qurilish ishlari	milliard so'm	388,4	8245,8	86,9	2,3marta
CHakana savdo aylanmasi	milhard so'rn	1788	21873	99.2	2.8marta
Xizmatlarning	foiz	37,0	49,0	x	x
Kichik biznesningYalMdagi ulushi	foiz	31.0	52.5	x	x
Asosiy kapitalga invcstitsiyalar	million dollarqiymatida	3142,5	9712,7	3.8marta	11.6
YalMga nisbatan foizda	foiz	22,9	25.0	x	x
Tovarlar va xizmatlar eksporti	million dollar	3265	13045	7.4marta	29.5 mart
YalMga nisbatan fbizda	foiz	24	33.5	x	x

Tovarlar va xizmatlar importi	million dollar	2947	8800	8.1marta	24,2 mart
YalMga nisbatan foizda	foiz	21,4	22.6	x	x
Tashqi savdo	million dollar	317	4245	x	x

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi Toshkent 2011

Yalpi ichki mahsulot bilan birga yalpi milliy mahsulot (YAMM) ko‘rsatkichi ham qo‘llaniladi. YAMM keng tarqalgan umumlashtiruvchi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, mamlakat tomonidan muayyan davr (odatda bir yil) ichida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor bahosidagi umumiy qiymatini ifodalaydi. YAMM tarkibiga mamlakat hududida hamda ushbu mamlakatga tegishli ishlab chiqarish omillaridan foydalanib xorijda yaratilgan mahsulot va xizmatlar qiymati ham kiritiladi. 1993-yildan boshlab yangi Milliy hisoblar tizimiga ko‘ra yalpi milliy mahsulot ko‘rsatkichi yalpi milliy daromad (YAMD) deb yuritila boshlandi

YAMD milliy korxonalar qayerda joylashganidan qat’i nazar, ular tomonidan ishlab chiqarilgan pirovard tovar va xizmatlarning bozor qiymati yig‘indisini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda YAMD hajmi YAIM hajmidan farq qiladi. YAIM xorijda ushbu mamlakat resurslaridan foydalanish evaziga olingan omilli daromadlar (yollanma ishchilar daromadlari, renta daromadlari, ssuda foizi, firmalar foydasi) bilan xorijliklar tomonidan olib chiqib ketilgan xuddi shunday daromadlar o‘rtasidagi farqni hisobga oladi.Shu sababli YAMDni hisoblash uchun YAIM qiymatiga xorijda mamlakat korxonalari va jismoniy shaxslari tomonidan olingan daromadlar qo‘shiladi hamda ushbu mamlakat hududida xorijiy investorlar va xorijiy ishchilar tomonidan olingan daromadlar ayiriladi. Agar farq ijobiy bo‘lsa, YAMD hajmi YAIMdan ko‘p bo‘ladi va aksincha. Bunday farq bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda odatda 1 foiz atrofida kuzatiladi.Shuni alohida ta’kidlash lozimki, MHTda yalpi ichki mahsulot birlamchi iqtisodiy ko‘rsatkich sifatida qabul qilingan. YAIMni ishlab chiqarish jarayonida, daromadlarning hosil bo‘lish jarayonida va daromadlardan foydalanish jarayonida tahlil qilish mumkin.Ishlab chiqarish jarayonida YAIM rezidentlar tomonidan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan qo‘shilgan qiymatni tavsiflaydi. Daromadlar hosil bo‘lish jarayonida esa YAIM ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va ishlab chiqarish ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanadigan birlamchi daromadlarni ifodalaydi.

Daromadlardan foydalanish jarayonida YAIM milliy iqtisodiyot sektorlarining pirovard iste’moli va jamg‘arish miqdorlari hamda sof eksport orqali ifodalanadi. Shulardan kelib chiqqan holda yalpi ichki mahsulot uch xil usulda aniqlanadi:

ishlab chiqarish usuli;

taqsimlash usuli;

pirovard foydalanish usuli

O'zbekiston Respublikasi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2010 yil	2011 yil
Yalpi ichki mahsulot	million	92,32	99,7
Sanoatning YalMdagi ulushi	Foiz	23	24
Qishliq xo jaligining	Foiz	17,	17,

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	Mlrd so'm	15811	1745
Qurilish mahsulotlari	Foiz	6,4	6,
Transport va aloqa	Foiz	11,0	11,
Savdo	Foiz	8,9	8,

YAIMni qo‘shilgan qiymatlar yig‘indisi sifatida aniqlash ishlab chiqarish usuli deb yuritiladi. Bu usulda YAIMni hisoblashning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

YAIM = yalpi qo‘shilgan qiymat + tovarlar va importga soliqlar − tovarlar va importga subsidiyalar

Ko‘rinib turibdiki, yalpi qo‘shilgan qiymat YAIMning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Yalpi qo‘shilgan qiymat yalpi ishlab chiqarish hajmi bilan oraliq mahsulot o‘rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. Oraliq mahsulot deganda joriy ishlab chiqarish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan material resurslar va xizmatlarni sotib olishga sarflangan xarajatlar tushuniladi.

Agar yalpi ichki mahsulotdan amortizatsiya xarajatlarini chegirib, unga xorijdan birlamchi daromadlar tushumi saldo-sini qo‘shsak, milliy daromad hosil bo‘ladi:

MD = YAIM − amortizatsiya + xorijdan birlamchi daromadlar tushumi qoldig‘i

Taqsimlash usulida hisoblashda YAIM tarkibiga ishlab chiqarish birliklari (rezidentlar) tomonidan taqsimlangan birlamchi daromadlarning quyidagi turlari kiradi: yollanib ishlovchilarning ish haqlari, ishlab chiqarish va importga sof soliqlar (ishlab chiqarish va importga soliqlar minus ishlab chiqarish va importga subsidiyalar) hamda yalpi foyda.

YAIM = yollanib ishlovchilarning ish haqlari + ishlab chiqarish va importga sof soliqlar + yalpi foyda.

Yollanib ishlovchilarning ish haqlari joriy davrda bajarilgan ish uchun yollanib ishlayotgan xodimga ish beruvchi tomonidan to‘lanadigan pul va natura ko‘rinishidagi mukofot hisoblanadi. U ikki qismdan iborat bo‘ladi:

ish haqi;

ish beruvchilarning ijtimoiy sug‘urtaga o‘tkazmalari.

Bu usulda milliy daromadni aniqlash uchun YAIMdan boshqa mamlakatlarga berilgan birlamchi daromadlar ayriladi va boshqa mamlakatlardan olingan daromadlar qo‘shiladi.

YAIMni pirovard foydalanish usulida hisoblash uchun quyidagi elementlar yig‘indisi topiladi: tovar va xizmatlarning oxirgi iste’moli, yalpi jamg‘arish, tovar va xizmatlar eksporti va importi qoldig‘i.

YAIM = tovar va xizmatlarning oxirgi iste’moli + yalpi jamg‘arish + (eksport − import)

Tovar va xizmatlarning pirovard iste’moli deganda ularning aholi shaxsiy ehtiyojlari hamda jamiyatning jamoaviy ehtiyojlarini to‘liq qondirish uchun ishlatilishi tushuniladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, ko‘pgina mikroiqtisodiy ko‘rsatkichlar yordamida korxonalar faoliyatiga baho berilib, ular faoliyatining rivojlanish tamoyillari aniqlansa, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali butun iqtisodiyotning holati, uning o‘sishi yoki pasayishi tahlil qilinib, xulosa chiqari1adi. Ular yordamida davlat o‘z iqtisodiy siyosatini belgilaydi. Bu tizimga kiruvchi turli xil ko‘rsatkichlar, birnchidan, bizga ma’lum vaqt oralig‘idagi ishlab chiqarish hajmini hisoblash va milliy iqtisodiyotning faoliyat yuritishiga bevosita ta’sir qiluvchi omillarni aniqlash imkonini beradi. Ikkinchidan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimi, milliy mahsulot va uning tarkibiy qismlari harakatining barcha bosqichlarida, ya’ni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlash va

iste'mol bosqchlarida ko'rgazmali shaklda aks ettirish imkonini beradi. Nihoyat, uchinchidan, mazkur ko'rsatkichlar tizimi mavjud resurslar va ulardan samarali foydalanish darajasini, iqtisodiyotning turli sohalari, tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblik va muvozanatlik holatini aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston iqtisodiyoti. Darslik. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: "Iqtisodiyot" nashriyoti, 2020.
3. O'zbekiston Milliy universiteti iqtisodiyot fakulteti mualliflar jamoasi – Makroiqtisodiyot. Toshkent: O'zMU nashriyoti, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi – O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki – Yillik hisobot: pul-kredit siyosati. Toshkent, 2024.
6. N.M. MAXMUDOV, A.B. SHAKAROV, X.A. ULASHEV, J.A.SHAKAROV MAKROIQTISODIYOT (Darslik) TOSHKENT - 2022
7. Milliy hisoblar tizimi (MHT) bo'yicha xalqaro metodologik qo'llanmalar (UN System of National Accounts, SNA).
8. SH.SHODMONOV IQTISODIYOT NAZARIYASI DARSLIK TOSHKENT-2020